

“TASDIQLAYMAN”

Sirdaryo BXO

boshqaruvchisi

N. Xudayshukurov

2026-yil 18-fevral



“O‘zsanoatqurilishbank” ATBda korrupsiyaga qarshi kurashish masalalari yuzasidan aholi va tadbirkorlar ishtirokida o‘tkazilgan ochiq muloqot tadbiri BAYONI

2026-yil 18-fevral

Guliston shahri

Ma’ruzachilar:

“O‘zsanoatqurilishbank” ATB
Korrupsiyaga qarshi kurashish
xizmati rahbari – **Sh. Ismoilov**

Markaziy bank Sirdaryo viloyati
Bosh boshqarmasi mas’ul xodimi -
N. Usmonov

Sirdaryo BXO boshqaruvchisi –
N. Xudayshukurov

Taklif etilganlar:

“O‘zsanoatqurilishbank” ATB
mijozlari (hudud aholisi hamda
tadbirkorlar)

**Ochiq muloqot
o‘tkazilgan sana va joy:**

2026-yil 18-fevral,
Sirdaryo BXO binosi majlislar zali

“O‘zsanoatqurilishbank” ATB Boshqaruvi Raisi boshchiligida 2026-yil 28-yanvarda kuni “Korrupsiyaga qarshi kurashish xizmatining 2026- yil uchun belgilangan ustuvor vazifalari va boshqa masalalar bo‘yicha” o‘tkazilgan yig‘ilishda berilgan topshiriqlar bayoni ijrosini ta‘minlash maqsadida Sirdaryo BXOda bankda korrupsiyaga qarshi kurashish masalalari yuzasidan hudud aholisi va tadbirkorlar ishtirokida ochiq muloqot tadbiri o‘tkazildi.

Ochiq muloqotda “Mijoz – tadbirkorlarning “O‘zsanoatqurilishbank” ATBda korrupsiyaga qarshi kurashish bilan bog‘liq taklif va mulohazalari” tinglandi. Shuningdek, qatnashchilarning bank tizimiga oid barcha savol va takliflari eshitildi hamda ularni hal etish yuzasidan chora-tadbirlar belgilab olindi.

Tadbirni ochib berish uchun “O‘zsanoatqurilishbank” ATB Korrupsiyaga qarshi kurashish xizmati rahbari Sh. Ismoilov so‘zga chiqib, ochiq muloqot yuzasidan o‘z fikrlarini bildirdi:

“So‘nggi yillarda davlat hokimiyati va boshqaruvi organlari faoliyatining ochiqligini ta‘minlash, byurokratiya va korrupsiyaning turli ko‘rinishlariga qarshi kurashish mamlakatimizda davlat siyosatining eng ustuvor yo‘nalishiga aylandi.

Bu borada O'zbekiston Respublikasi Prezidentining tashabbusi bilan boshlangan islohotlar natijasida davlat organlari va tashkilotlari faoliyati ochiqligi hamda shaffofligini ta'minlovchi mexanizmlar, shuningdek, jamoatchilik nazorati instituti hayotga samarali joriy etila boshlandi.

Jumladan "O'zsanoatqurilishbank" ATBda ham alohida mustaqil tuzilma – Korrupsiyaga qarshi kurashish xizmati tashkil qilindi va bank Kuzatuv kengashiga hisobdor etib belgilandi.

Bugungi ochiq muloqot mijoz – tadbirkorlarning "O'zsanoatqurilishbank" ATBda korrupsiyaga qarshi kurashish bilan bog'liq taklif va mulohazalarini ochiq-oydin gaplashish maqsadida tashkil etilgan bo'lib, bu borada ishtirokchilarning o'z fikrlarini bemalol bildirishlari mumkin".

Shundan so'ng, bir qancha mijozlar xususan, "Lider Star 777" MCHJ, "Yatt Xolmamatov Azizbek Baxridin o'g'li", "Robot Uzum Impeks" MCHJ, "Abdulaziz Qurilish Service" MCHJ, "Osiyo Qurilish Imkon Servis" MCHJ, "Burgutov Bobir" MCHJ, "Sir Hidro Servis" MCHJ, "Sherali Orginal Fayz" MCHJ, "Umrbek Fayzli Non" MCHJ, "Yatt Nazilov Dilshod Xavasovich", "Sarvarbek Natural Herbs" MCHJ, "Yodgoraxon" MCHJ, "Dehqonobod Metan Gaz" MCHJ, "Quality fast print" MCHJ, "Baxmal Drib" MCHJ, "Yangi avlod intellektual maktabi" MCHJ, "Yatt Inoyatova Mashhura Mamir qizi", "Surxon Sardoba" MCHJ vakillari o'z fikr va mulohazalarini hamda mavjud muammolarini ma'lum qildi (*ochiq muloqot davomida bildirilgan fikr va mulohazalar bo'yicha to'liq jadval ilova qilinadi*).

Korrupsiyaga qarshi kurashish xizmati rahbari Sh.Ismoilov tomonidan har bir bildirilgan fikr-mulohaza hamda takliflar yozib olinib, har bir mijozga zarur tushuntirishlar berildi.

Bundan tashqari, ochiq muloqot davomida bank tizimida uchrayotgan qonun buzilish holatlari, xodimlar tomonidan o'z vazifalarini sovuqqonlik bilan bajarish holatlari hamda moddiy yoki nomoddiy manfaat evaziga lavozim vakolatlarini suuiste'mol qilish holatlari uchrayotgan yoki uchragan taqdirda, bankning maxsus aloqa kanallari orqali xabar yo'llash mumkinligi tushuntirildi. Bunday holatlarda murojaat qiluvchi shaxs to'g'risidagi ma'lumotlar sir saqlanishi kafolatlanishi ma'lum qilindi.

Mazkur ochiq muloqotda qatnashgan barchaning fikr va mulohazalari tinglangandan so'ng, ochiq muloqot yakunida qatnashchilar tomonidan berilgan savollarga atroflicha javob berildi.

Bayonnomani yuritdi



Q.Tojiqulov